

Rizayeva Gulnora Botirovna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Alfraganus University

<https://orcid.org/0009-0006-1387-8017>

TARBIYA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA YOSHLARNI IJTIMOY-HUQUQIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiya texnologiyalari asosida yoshlarining huquqiy faolligini oshirishning nazariy jihatlarini, yoshlarni ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ta'siri darajasini oshirish, ularni jamoat va davlat ishlariga keng jalb etish, ta'lim muassasalari orqali siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlarida faolligini kuchaytirish lozim. Yoshlarni huquqiy faolligini rivojlantirishda tarbiya texnologiyalaridan foydalanish mazmuni yoritib berilgan.

Tayanch tushunchalar: ijtimoiy-huquqiy faollik, ta'lim muassasalari, tarbiya texnologiyalari, qonun ustuvorligi, huquqiy madaniyat, milliy qonunchilik, madaniy-ma'naviy, siyosiy-huquqiy ijtimoiylashuv.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические аспекты повышения правовой активности молодежи на основе образовательных технологий, повышения уровня влияния молодежи в общественно-политической жизни, широкого вовлечения ее в общественные и государственные дела, усиления её активности в процесс принятия политических решений через образовательные учреждения. Освещено содержание использования образовательных технологий в развитии правовой активности молодежи.

Основные понятия: социально-правовая активность, образовательные учреждения, воспитательные технологии, верховенство закона, правовая культура, национальное законодательство, культурно-духовная, политико-правовая общественность.

This article discusses the theoretical aspects of increasing the legal activity of young people on the basis of educational technologies, increasing the level of influence of young people in socio-political life, their widespread involvement in public and state affairs and strengthening their activity in the process of making political decisions through educational institutions. The content of the use of educational technologies in the development of legal activity of youth is covered.

Basic concepts: social and legal activity, educational institutions, educational technologies, the rule of law, legal culture, national legislation, cultural and spiritual, political and legal community.

Yangi taraqqiyot davrida yoshlarning huquqiy faolligini oshirishning metodologik jihatlarini, yuridik tabiatini tahlil etish, shuningdek, yoshlar huquqiy faolligini oshirish tizimi samaradorligini ta'minlash, ularning huquqiy va siyosiy xabardorligini oshirishning ta'sirchan mexanizmlari shakl va usullarini tadqiq etish muhim ahamiyatga molikdir. Ayniqsa, yoshlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ta'siri darajasini oshirish, ularni jamoat va davlat ishlariga keng jalb etish, turli institutlar orqali siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonlarida faolligini kuchaytirishning qonuniy yechimlarini topish, bu boradagi xalqaro huquq normalarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish dolzarb hisoblanadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev huquqiy madaniyatning ahamiyatini quyidagicha ta'kidlaydi: «...qonun ustuvorligini ta'minlashda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash alohida ahamiyat kasb etadi». Binobarin, huquqiy madaniyatning zarurati davlatimizning strategik maqsadi huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish bilan bevosita bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash

to'g'risida"gi 23-son Qarori yoshlarining har tomonlama aqliy, ma'naviy, jismoniy barkamol qilib voyaga yetkazishga, ularni iste'dod va qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berishga, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida yoshlarni har tomonlama faolligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Ushbu qarorning asosiy vazifasi qatoriga yoshlarni, eng avvalo, madaniyat, san'at, sportga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish va shu kabi sohalarga jalb qilish kabilar kiritilgan [2].

O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son, 2017-yil 5-iyuldagi «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi PF-5106-son, 2018-yil 14-avgustdagi «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3907-son qarorlari va mavzuga oid boshqa qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarni pedagogik imkoniyatlarini amalga oshirishga oid tadqiqotlarni yotirib berishga muayyan darajada xizmat qiladi [1].

O'zbek huquqshunos olimlaridan professor X.Odilqoriyev huquqiy madaniyatni shunday ta'riflaydi: «Aslida, huquqiy madaniyat o'z mohiyat-e'tibori bilan insonning siyosiy va huquqiy jihatdan ijtimoiylashuvi (sotsializatsiyasi) natijasidir. Bunda insonning ijtimoiy tajribasi, bilim va ko'nikmalari to'raligicha namoyon bo'ladi. Inson o'z manfaat va ehtiyojlarini qondirishga qay darajada qobil, ayni vaqtda, jamiyat manfaatlarini ta'minlashga qanchalik samarali hissa qo'sha oladi, degan savollarga javob ko'p jihatdan uning ichki ma'naviyati, e'tiqodi va huquqiy madaniyatiga bog'liq.

Amerikalik siyosatshunos olim Ch.Merriam jamoatchilikning fikrini asosiy vosita deya to'g'ri baholagan. Shuningdek, u fuqaro tarbiyasiga yo'naltirilgan «faol fuqaro»ni yetishtirish har bir davlatning asosiy vazifasidir [3], degan fikrni qayd etadi. Demak, mazkur fikrga asoslanib, huquqiy va siyosiy madaniyati yuksak yoshlar mamlakat taraqqiyotining kafildir, deyish o'rinni.

Mutaxassis olimlarning fikriga e'tibor qilsak, ularning har biri keng qamrovli tushuncha sanalmish siyosiy madaniyatning u yoki bu jihatini talqin etishgan. Ushbu konseptual tushunchaning bir necha o'nlab ta'riflari mavjud. Lekin uning hali yagona tizimlashtirilgan yaxlit bir ta'rifi yo'qligidan kelib chiqsak, siyosatshunos olimlarning ilmiy xulosalariga qo'shilish mumkin.

Yoshlarninigi ijtimoiy-huquqiy faolligi ularning ijtimoiy, huquqiy va siyosiy jarayonlarda qatnashishi, ularning ijtimoiy huquqiy burchlarini tushunish va shaxsiy huquqlarini amalga oshirish xohishi; yuqori darajada madaniy-ma'naviy saviyaga ega bo'lish; o'z manfaatlarini jamiyat va davlat manfaatlari bilan uyg'un tarzda ongli idrok etish hamda yangi ijtimoiy maqomni egallash ehtiyojini anglash insonning ijtimoiy, huquqiy va siyosiy hayotdagi ishtirokiga sabab bo'lishi mumkin. Ularni tub islohotlar jarayoniga jalb qilish faoliyati ham inson faolligiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Rus olimasi Y.M.Krupenya huquqiy-siyosiy faollik – davlat boshqaruvi va siyosiy tizimda fuqarolik jamiyatining qaror topishida fuqaroning bevosita ommaviy tarzda shaxsiy faol ishtirokida qo'llaniladigan nazariy-huquqiy tuzilma degan fikrni ilgari suradi [4].

Huquqiy madaniyat – turli xil xalqlarning yoki millatlarning, ijtimoiy-siyosiy birliklarning siyosiy voqelik to'g'risidagi, siyosat, qonunlar va ularning amal qilish qoidalari, qadriyatlarini to'g'risidagi tasavvurlari hamdir. Shuningdek, siyosiy madaniyat o'zida uzoq yillar shakllangan va turli avlodlar tomonidan qadrlanib kelinadigan siyosiy an'analarini, siyosiy amaliyotda faoliyat ko'rsatayotgan normalarni, g'oyalarni, kontseptsionalarni o'zida ifoda etadi [6]. Ko'rinib turibdiki, siyosiy madaniyat siyosiy voqelik haqidagi siyosiy bilimlarning majmui sanaladi.

Jamiyatning huquqiy hayoti sohasini, inson huquqiy ongi, huquqiy faolligini oshirish muammolarini u yoki bu tarzda o'rgangan mutaxassislarning turli nuqtai nazarlarini batafsil tahlil qilish talab etilmoqda. Huquqiy madaniyat muayyan jamoada yashovchi odamlarning huquqiy ongi va huquqiy-siyosiy madaniyati darajasi, yuridik normalar va yuridik faoliyat (huquq ijodkorligi, huquqni qo'llash, huquqni muhofaza qilish faoliyati)ning yuksalishi bilan bog'liq. Uning negizini huquq haqidagi bilimlar va uning talqinlari, shuningdek, unga muvofiq bo'lgan sa'y-harakatlar tashkil etadiki, bularning barchasi jamiyatda fuqarolar siyosiy- huquqiy

madaniyati darajasi bilan bevosita bog'liq.

Huquqiy faollik har bir jamiyatda huquqning ijtimoiy qadriyat sifatida mavjud bo'lishi va rivojlanishida ifodalanadigan huquqiy ong va qonuniylik hamda yuridik amaliyotning real ahvoli, qonunchilikning sifat darajasi bo'lib, u mazkur jamiyatning o'ziga xos yuridik boyligi ham sanaladi. Aynan shu bois aholi, ayniqsa, muhim ijtimoiy qatlam sanalmish yoshlarning huquqiy faolligini oshirish vazifasi davlat va jamiyatimizning huquqiy asoslarini mustahkamlaydi. Yoshlarning huquqiy faolligini oshirish vazifasining dolzarbligi yoshlarning har bir yangi avlodi oldingi avlodlar tajribasini o'rganib, yangi ijtimoiy munosabatlarni anglash, ularga moslashish va jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shishga intilishi bilan izohlanadi. Bu holat esa, o'z navbatida, huquqiy madaniyatni shakllantirishning yangi usul, shakl va vositalarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Yoshlarning huquqiy faolligi – bu adolat, mas'uliyat, faollik, sha'n, g'urur va qadriyat kabi umumiy huquqiy madaniyatning elementlari asosida shakllanadigan hamda yoshlarning huquqiy-siyosiy ijtimoiylashuvi natijasi yoxud qonunlarga munosabati, huquqiy savodxonlik darajasi, huquq buzilishlariga muvohiqchilikni anglatadigan, huquqiy ong, huquqiy bilim va huquqiy xulq-atvorida aks etadigan faoliyatdir.

Ayni mana shu jarayonda mazkur tadqiqotda yoshlarni huquqiy tarbiyalash borasida o'ziga xos usullardan foydalanish ko'zda tutiladi. Jumladan, bunda tarbiya texnologiyalarini q'llash samarali bo'lib hisoblanadi. Bilamizki, ushbu texnologiyalar bugungi kun ta'lim tizimiga joriy qilinishi bilan bir qatorda uning samarali natijasi o'quv jarayonida va uning natijasida na,oyon bo'ladi. Quyida ba'zi texnologiyalarga to'xtalib o'tamiz.

Tarbiya texnologiyalaridan biri "Tafakkur ko'chalarida"dir. Ushbu texnologiya orqali o'quvchilar o'tilgan barcha mavzularni yodga olish, mustaqil ravishda o'z izohlarini berish, shu orqali o'z bilimlarini tekshirib, baholashga imkoniyat yaratishga erishiladi. Mashg'ulot o'tkazish tartibi:

A) Tinglovchilar guruhlariga ajratiladi.

B) Tarqatma materiallar guruhlariga tarqatiladi.

Guruhlar ushbu kartochkalardagi mavzu bo'yicha o'z fikrlarini bayon etadilar.

Masalan:

Huquqiy tarbiya	Siyosiy tarbiya	Ijtimoiy tarbiya
-----------------	-----------------	------------------

Mazkur texnologiyadan kutiladigan natija tinglovchilarni mantiqiy fikrlashga, o'z fikrlarini mustaqil ravishda bayon eta olish, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga o'rgatadi [5].

Tarbiya texnologiyalaridan yana biri "Galereya". Ushbu texnologiyaning maqsadi o'quvchilarni erkin, mustaqil fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga o'rgatish, Sharqona odob qoidalari haqida tushunchalarini kengaytirish, yaxshi insoniy fazilatlarni shakllantirish bo'lib hisoblanadi [5].

O'tkazilish tartibi: o'quvchilar guruhlariga ajratiladi, har bir kichik guruhga kartochkalar tarqatiladi, yozma bayon qilinadigan varaqlar topshiriladi. O'quvchilar navbati bilan o'zlari tayyorlagan ma'lumotni badiiy, musiqiy, she'riy qilib taqdim qilishlari mumkin.

Siyosiy partiyalar	Nodavlat tashkilotlar	Davlat muassasalari	Ta'lim muassasalari
--------------------	-----------------------	---------------------	---------------------

Kutiladigan natijalar: O'quvchilarni yakka va jamoaviy, guruh bilan ishlash, ijodiy va tashkilotchilik faoliyati ko'nikmalarini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat.

Tarbiya texnologiyalaridan yana biri "Qiyosiy tahlil" deb nomlanadi.

Uning maqsadi: ishtirokchilar qiyosiy tahlil jadvalini to'ldirish jarayonida mavzuni chuqurroq o'zlashtirishga erishadilar. O'tkazilish tartibi: Guruh rahbari tomonidan aniq bir muammoni mavzu sifatida o'rta tashlanadi. Kutiladigan natija: Muammolarning kelib chiqish sabablari, tuzatish yo'llarini topish, mustaqil izlanishga, fikrlashga undaydi [5].

Yoshlarning xizmat vazifalari ular faoliyat ko'rsatayotgan ta'lim muassasasining yo'nalishiga, xususiyatiga, imkoniyatiga, sharoitiga, o'quvchilarning saviyasiga va tarbiyalanganlik darajasiga hamda ularning tashkilotchilik qobiliyatiga, pedagogik mahoratiga

38 asoslangan holda belgilanadi.

Masalan: **“Globallashuvning oqibatlari”**

Ijoiy	Salbiy
Xalqaro integratsiya	O'tkir mafkuraviy ta'sir
Hamkorlik aloqalari	Mafkuraviy tazyiq
Xorijiy investitsiyalar	Ma'naviy tahdid
Kapital va tovarlar almashinuvi	Mafkuraviy xuruj
Ishchi kuchini erikn harakati	Ma'naviy bo'shliq
Yangi ish o'rinlari	Xatarli tahdid
Axborot texnologiyalari	Axborot xurujlari
Ilm-fan yutuqlarining tez tarqalishi	Axloqiy buzuvchilik
Qadriyatlarining uyg'unlashuvi	Ommaviy madaniyat
Sivilizasiyalarning muloqot	Egosentritizm
O'zaro yordam imkoniyatlarining ortishi	Ma'naviy negizlarga bepisandlik, zo'ravonlik

Ayniqsa, huquqiy mavzulardagi muammolarni hal qilishda “Munozara” metodining ahamiyati katta. Bunday sharoitda bahslashuvchilarning yetuklik darajalari muhim ahamiyatga ega. Huquqiy masalalar yuzasidan munozarani tashkil etuvchi shaxsga alohida talablar qo'yilishini ta'kidlash kerak. Munozara qatnashuvchilariga hech qanday tazyiq o'tkazmaslik, har bir shaxsning erkin fikrini bayon etishiga imkon berish, fikrlarning tamoman zidlashib ketishiga yo'l qo'ymaslik, bahslashuvdan kelib chiqadigan xulosa va qarorni guruhning o'ziga havola qilish lozimligini unutmaslik zarur. Bu usul maktablarda, turli bilim maskanlarida, mahalla qo'mitalari ish faoliyatida psixologik maslahat shahobchalari, o'spirinlar tarbiyasi bilan bog'liq jarayonlarda keng qo'llanilishi mumkin. Yuqorida keltirilgan fikrimizning dalili sifatida quyidagi trening mashg'ulotlarini o'tkazilishini lozim topdik:

«Tanishuv», «Men faxrlanaman», «Tinglash va eshitish», «Iltifotli qadam», «Buzuv telefon yoki axborot uzatishda nimani yo'qotish mumkin», «O'quvchiga huquq nimaga kerak? (debat)», «Huquqlarimni tanlashga tayyorman», shuningdek, muzyoralar: «Ijtimoiy huquqiy faollik», «Mehmonxona», «Majburiyatlarim», «Mening huquqim», «Men kimman?»[5] kabi muzyoralar vaqtni, o'quvchilarning ehtiyoj va imkoniyatlarini hisobga olgan holda o'tkaziladi. Tadqiqot jarayonida biz mashg'ulotlarda o'quvchilarning hamkorlik faoliyatiga nisbatan ijobiy munosabatlari va faolliklari oshganligini guvohi bo'ldik.

Shunday qilib, tarbiya texnologiyalari asosida tashkil etilgan o'quv mashg'ulotlari o'quvchi ongiga, tuyg'usiga, irodasiga ta'sir ko'rsatib, tafakkurini oshiradi. Yoshlarning huquqiy faolligi ular tomonidan zaruriy huquqiy va siyosiy bilim hamda ko'nikmalarni o'zlashtirish, qonunchilik talablarini o'z xulq-atvoriga singdirishda, bu borada atrofdagilarga talabchan, qonunni buzuvchilarga murosasiz bo'lish va nihoyat, yuqori siyosiy-huquqiy ongga ega bo'lishda namoyon bo'ladi. Bunday faollik huquqni hurmat qilishga tayyorlikda fuqarolik pozitsiyasini namoyon etishda ko'rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi “O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” 23-son qarori
3. Merriam C.E. The Making of Citizens: A Comparative Study of Methods of Civic Training. – Chicago, 1931. – R.5.
4. Крупеня Е.М. Политика-правовая активность личности. – М.: Университетская книга, 2009. – С. 40.
5. Ишмухаммедов Р., Абдукодиров А., Пардаев А. Tarbiya innoatsion texnologiyalar. – T.: Fan va texnologiya, 2016 y.
6. Ergashev I. Siyosat falsafasi. Toshkent, «Akademiya», 2004 yil, 27–bet.